O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.28 /2025.17.12.Ped.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

NURITDINOV ABRORJON AHRORJON O‘G‘LI

BOSHLANG‘ICH TAYYORLOV GURUHIDAGI 8-10 YOSHLI TAEKVONDOCHILARNI IXTISOSLASHTIRILGAN HARAKAT TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Chirchiq - 2026

UO‘K: 796.856.2:015.132:373

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Nuritdinov Abror Axrorjon o‘g‘li
Boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi 8-10 yoshli taekvondochilarni ixtisoslashtirilgan harakat tayyorgarligini takomillashtirish..…… ……..……. 5

Нуритдинов Аброр Ахроржон ўғли
Совершенствование специализированной двигательной подготовки таэквондистов 8-10 лет в группе начальной подготовки.....29

Nuritdinov Abror Akhrorjon o‘gli
Improvement of specialized movement training of taekwondo players aged 8-10 in the primary training group .....…….....59

E’lon qilingan ishlar ro‘yhati
Список опубликованных работ
List of published works ……...……..……..63

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.28 /2025.17.12. Ped.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

NURITDINOV ABRORJON AHRORJON O‘G‘LI

BOSHLANG‘ICH TAYYORLOV GURUHIDAGI 8-10 YOSHDAGI TAEKVONDOCHILARNI IXTISOSLASHTIRILGAN HARAKAT TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Chirchiq - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3728 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti veb-sahifasida (www.jtsu.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Rahmatov Bektosh Shomurod o‘g‘li** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Rasmiy opponentlar:	**Adilov Sarvar Qaxramonovich** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Artiqov Zohid Sobirovich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.28 /2025.17.12. Ped.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 - yil “___” “_____” soat dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76, veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, A bino, 1-qavat, 118-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy). Tel.: (0-370)-717-17-79, faks: (0-370)-717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____”_____kuni tarqatildi.
(2026-yil “_____” _____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d.(DSc), professor

Sh.Sh.Gaziyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f. d. (DSc), professor

M.S.Olimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi, Ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo miqyosida barcha sport turlari jadal rivojlanib, xalqaro musobaqalarda ishtirok etayotgan sportchilar soni, ularning natija va yutuqlari sezilarli darajada ortib borishi sababli sportchilar avvalgilarga nisbatan ko‘proq jismoniy zo‘riqish, psixologik bosim va yuqori darajadagi raqobatli muhitda faoliyat yuritmoqda. Xususan taekvondo bilan shug‘illanuvchi yosh sportchilar bilan yuqori intensivlikda mashg‘ulotlar o‘tkazilishi mushaklar, bo‘g‘imlar va orqa umurtqa sohasida ortiqcha yuklama kuzatilishiga olib kelmoqda. Natijada sportchilarning organizmi keyingi mashg‘ulotlargacha to‘liq tiklana olmaydi, tez-tez jarohatlar yuzaga keladi va bu holat oxir-oqibat sport faoliyatini erta tark etishga sabab bo‘lmoqda. Bu esa taekvondochilarning yillik tayyorgarligini ilmiy asosda tashkil etish, har bir mashg‘ulot bosqichining mazmuni va yuklamasini yosh xususiyatlaridan kelib chiqib aniq rejalashtirish, texnik harakatlarni chuqur tahlil qilish hamda takomillashtirish, tayyorgarlik turlari bo‘yicha saralashning yangi talablarini ishlab chiqish, yuqori sport yutuqlariga erishishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni boshqarishning tashkiliy va uslubiy jihatdan samaradorligini oshirish yo‘llarini izlab topish bilan bog‘liq tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahonda sport amaliyotida taekvondoda jang sur’ati, zarbalar tezligi va texnik harakatlarning murakkabligi ortib borayotgani bois, sportchining koordinatsion qobiliyati, muvozanatni saqlay olishi hamda harakat aniqligi ustuvor omilga aylanmoqda. Yuqori malakali taekvondochilarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning asosiy texnik harakatlarni to‘g‘ri va barqaror bajara olishiga, hujum va himoya elementlarini vaziyatga mos ravishda qo‘llay olishiga bog‘liq. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yetakchi terma jamoalar tizimida sportchilarni tayyorlash jarayoni aynan boshlang‘ich bosqichdan boshlab ilmiy asosda rejalashtirilashtirish, harakat ko‘nikmalarini to‘g‘ri shakllantirish kelgusida yuqori sport natijalariga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Shu sababli yosh taekvondochilarning ixtisoslashtirilgan harakat tayyorgarligini takomillashtirish, ularning tezkorlik, chaqqonlik, muvozanat va koordinatsion imkoniyatlarini maqsadli rivojlantirish orqali texnik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan mashg‘ulotlar metodikasini takomillashgan variantlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda sportchilarimizni xalqaro musobaqalarga tayyorlash, ularning sport salohiyatini izchil rivojlantirish uchun yillik tayyorgarlikning har bir bosqichini tizimli takomillashtirish bo‘yicha qator islohotlar olib borilmoqda. “Olimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilari zaxirasini kengaytirish maqsadida iqtidorli sportchilarni eng quyi bo‘g‘indan boshlab saralash va ularni professional tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish”[1] hamda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish orqali yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni aniqlash va

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-iyuldagi PQ 221-son “2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tadigan XXXIV yozgi olimpiya va XVIII paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi Qarori. Lex.uz.

ularni yuqori sport natijalariga yo‘naltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, yurtimiz taekvondochilarini ko‘p yillik tayyorlash tizimi, xalqaro arenadagi ayrim muvaffaqiyatlariga qaramasdan, yetarlicha shakllangani yo‘q. Qoidaga ko‘ra, ommaviy sportda, amaliyotchi-mutaxassislar yakkakurashlarning boshqa turlaridagi ishlanmalardan foydalanishadi, bunda, ko‘pincha taekvondoning xususiyatlarini hisobga olishmaydi. Yoki, O‘zbekistonning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olmagan holda, an’anaviy koreys metodikalarini qo‘llashadi. Har ikkala holatda ham, tayyorgarlik samarasi va mos ravishda, musobaqa faoliyatining natijaviyligi pasayadi. Undan tashqari, sportchi taekvondochilarni tayyorlash bo‘yicha tasdiqlangan, trenerlar qo‘llashi mumkin bo‘lgan va majbur bo‘lgan dasturlar mavjud emas. Xususan, boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi 8-10 yoshli taekvandochilarni ixtisoslashtirilgan harakat tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy adabiyotlarning kamligi yosh taekvondochilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish yangi yo‘llarini izlashni talab qiladi. Mazkur dissertasiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2022-yil 29-iyuldagi PQ-337-son “Taekvondo (WT) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2025-yil 8-iyuldagi PQ 221-son “2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tadigan XXXIV yozgi olimpiya va XVIII paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi qarori, hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dissertatsiya mavzusiga oid mutaxassis-olimlar tomonidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari va ularning qiyosiy tahliliga asoslangan xulosalar hamda amaliy-uslubiy tavsiyalar qator ilmiy-nazariy jurnallar, Respublika va xalqaro ilmiy anjumanlar to‘plamlari, shu jumladan ilmiy asarlar hamda monografiyalarda chop etilgan. Jumladan, mahalliy olimlarimizdan G.B.Abdurasulova, Sh.N.Nuritdinova S.S.Tajibayev, B.Sh.Raxmatov, N.Sh.Yusupova, U.Sh.Tursunaliyev, M.Abdurahmanovlar[2]

[2] Abdurasulova G. Nuritdinova Sh. Tajibayev S. Taekvondo nazariyasi va uslubiyati-T: 2015. – B. 430-436.; Tajibayev S.S. O‘smir yakkakurashchilarning kompleks tayyorgarligida harakatli o‘yinlarni qo‘llash metodikasini ilmiy-pedagogik asoslash: Pedagogika. fan. (DSc)...diss.avtoref. Chirchiq, O‘zDJTSU, 2019, 77 b; Raxmatov B.Sh. “Yosh taekvondochilarda muvozanat saqlash turg‘unligi va harakat aniqligini vestibulosomatik mashqlar

yakkakurashshilarning texnik, taktik, aqliy, funksional jihatdan tayyorgarlik holatlarini rivojlantirish, taekvondochilar tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha bilim va tajribasini rivojlantirish, harakatli o‘yinlardan foydalangan holda yakkakurashchilar tayyorgarligini oshirish, taekvondochilar tayyorgarligida maxsus mashqlardan foydalanish mahoratini oshirish hamda maxsus jismoniy tayyorgarligini nazorat qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Mustaqil davlar hamdo‘stligi mamlakati olimlaridan V.V.Kudin, V.V.Ageyevlar, V.S.Muntyan, Z.A.Abiyev, S.V.Vandishev, O.G.Yerov, Sonbol Assim Abdel-Gani Axmed, O.G.Epov, A.O.Rlotnikovlarlar[3] yakkakurashchilar tayyorgarligida jismoniy sifatlarni tayyorgarlik davrlarining ma’lum bir vaqtlarida rivojlantirishga, taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishning umumiy tamoyillari va qoidalarini yoritish masalalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Xorijiy yetakchi mutaxasislardan S.M.Fong, J.W.Y.Chung, L.P.Y.Chow, A.W.W.Ma, W.N.Tsang, İ.Çiçek, C.Türkeri, P.R.Oliveira, Vital J.C.Goehring, de L.N.Oliveira[4] taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion ta’lim uslublaridan foydalanish zarurligini asoslab, o‘zlarining ilmiy uslublarini ishlab chiqishga harakat qilishgan. Bugungi jismoniy tarbiya va sport sohasining zamonaviylashib borayotgan bir davrida taekvondochilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha o‘z ilmiy-tadqiqotlarida yoritib bergan. Lekin shunday bo‘lsada, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, taekvondochilarning jismoniy rivojlanishida texnik, taktik yondashuvlar, pedagogik jihatlar, ta’lim

---

yordamida rivojlantirish samaradorligi. Pedagogika. fan. (PhD)...diss.avtoref.-Chirchiq: O‘zDJTSU; 2022. -56 b; Yusupova N.Sh. Yosh taekvondochilarning (WT) maxsus jismoniy tayyorgarligini innovatsion texnologiyadan foydalangan holda nazorat qilish metodikasi. Pedagogika. fan. (PhD)...diss.avtoref.-Chirchiq:O‘zDJTSU; 2022.-55 b.; Abdurahmanov M.S. 9-10 yoshli karatechilarda bo‘g‘imlar egiluvchanligini tarbiyalash metodikasi va uni elektron o‘lchov uskunasi yordamida baholash. PhD diss... avtoreferati. Chirchiq, 2025. - 56 b.

[3] Кудин В.В., Агеев В.В. Теория и методика таэквондо / программа для слушателей Высшей школы тренеров ГЦОЛИВКа (Курс специализации). - М., 1992.-29 с.; Мунтян В.С. Оптимизация спецальной подготовки, к рукопашному бою: Автореф. дис... канд. наук. - Х: ХДАФК, 2006. - 20 с.; Абиев З.А. Построение микроциклов тренировочных нагрузок в подготовительном периоде годичного цикла подготовки таэквондистов 13-15 лет.Автореф.дис..канд. пед. наук.- Москва -2015. – 23 с.; Вандышев С.В. Содержание отбора юных таэквондистов на начальном этапе спортивной подготовки. Автореф.дис..канд. пед. наук.- Волгоград -2016. – 25 с.; Сонбол Ассим Абдель-Гани Ахмед. Профилактика травматизма у юных таэквондистов с использованием специальной тренировки. Автореф.дис..канд. пед. наук.- Санкт-Петербург -2018. – 25 с.; Эпов О.Г. Система сопряженной тренировки спортсменов высокой квалификации в таэквондо ВТФ. Автореф.дис..док. пед. наук.- Тамбов -2019. – 32 с.; Плотников А.О. Техническая подготовка юных таэквондистов на основе оперативной информации о двигательных действиях соперника. Автореф.дис..канд. пед. наук.- Волгоград -2020. – 24 с.

[4] Fong, S.M. Effect of Taekwondo Training on Sensori-Motor Performance and Postural Control in Children with and without Developmental Coordination Disorder. PhD diss., The Hong Kong Polytechnic University. Gonkong, 2012. – 136 p.; Fong, S.M., Chung, J.W.Y., Chow, L.P.Y., Ma, A.W.W., Tsang, W.N. Differential effect of Taekwondo training on knee muscle strength and reactive and static balance control in children with developmental coordination disorder: a randomized controlled trial. Research in Developmental Disabilities. London, 2013. – 10 b. (vol. 34, no. 5, pp. 1446-1455).;Oliveira, P.R., Goehring Vital, J.C., de Oliveira, L.N., et al. Analysis of the Taekwondo on practicing and non-practicing children and adolescent’s flexibility: Literature review. Research, Society and Development. São Paulo, 2021. – 8 b.; Çiçek, İ., Türkeri, C. The effect of gymnastics and taekwondo trainings on balance, flexibility and jumping parameters in primary school students. Journal of Sport Sciences Research. Anqara, 2023. – 15 b. (vol. 8, no. 3, pp. 399-414).Avramov, D. Level of flexibility in Taekwondo athletes 7-9 and 10-11 years old.Journal of Applied Sports Sciences. Sofiya, 2024. – 9 b. (vol. 8, no. 2, pp. 45-53).

metodlari va kasbiy faoliyat tahlili, kasbiy mahoratni rivojlantirishga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Lekin, taekvondochilarning texnik-taktik tayyorgarligini shakllantirishda yangi usul va uslublarni ishlab chiqish hamda amaliyotda qo‘llash masalalari deyarli tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissyertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №V/I/“Jismoniy tarbiya va sport faoliyatining nazariy-uslubiy asoslari takomillashtirish asosida terma jamoalarida yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimini, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida kasbiy-pedagogik ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirish” mavzusidagi fundamental ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi 8-10 yoshli taekvondochilarning texnik-taktik tayyorgarlik samaradorligini oshirishga imkon beruvchi ixtisoslashtirilgan o‘yin topshiriqlarini optimal rejalashtirish asosida takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi 8–10 yoshli takvondochilarning jismoniy va texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda saralangan mashqlar kompleksini ishlab chiqish;

boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi 8-10 yoshli taekvondochilarning musobaqa bellashuvlarida mashg‘ulotlarning optimal dasturini ishlab chiqish va pedagogik tajribada asoslash;

boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi 8–10 yoshli taekvondochilarning murakkab vaziyatlarda texnik-taktik tayyorgarlik darajasini aniqlash.

boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi taekvondochilarning texnik-taktik tayyorgarligini samarali shakllantirishga yordam beruvchi ixtisoslashtirilgan o‘yin topshiriqlarini ishlab chiqish va pedagogik tajribada asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi 8-10 yoshli taekvondochilarning texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulot jarayoni olingan.

Tadqiqot predmetini boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi taekvondochilarning texnik-taktik tayyorgarlik samaradorligini oshirish vositasi sifatida ixtisoslashtirilgan o‘yin topshiriqlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari tadqiqotda mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, pedagogik nazorat, pedagogik testlar, musobaqa faoliyatini tahlil qilish, pedagogik tajriba va matematik-statistik kabi uslubaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi 8–10 yoshli taekvondochilarning jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasini aniqlash asosida sparing mashg‘ulotlarida shartli jang elementlari bilan boyitilgan maxsus harakat topshiriqlarini tayyorgarlik jarayonlariga kiritish hisobiga erkin jang qilish ko‘nikmalari shakllantirilgan;

8-10 yoshdagi taekvondochilarni texnik tayyorgarligini rivojlantirish uchun murakkab musobaqa sharoitlarida jang ustunligi hamda nazoratni qo‘lga kiritish

imkonini beruvchi vaziyatga yo‘naltirilgan taktik qarorlar qabul qilish, tezkor hujum va qarshi hujumlar integratsiyasi hamda samarali jangovar harakatlar variantlarini tanlash hisobiga, hujum va qarshi hujumlarga tez o‘tish imkoniyatlari kengaytirilgan;

boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi 8-10 yoshli taekvondochilar raqibini aldamchi harakatlar bilan chalg‘itish uchun sparingda zarbalar ketma-ketligini yo‘llash va hujum zarbalariga qarshi bloklash va himoyalanish usullarini qo‘llash hisobiga murakkab vaziyatlarga xos mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan;

8-10 yoshli taekvondochilarni hujum, himoya va qarshi hujum harakatlariga o‘rgatishda sherik bilan sparing jarayonida uzoq, o‘rta va yaqin masofada qulay vaziyatlarda ixtisoslashtirilgan o‘yin usullaridan foydalanib sportchida diqqatni jamlash, vizual nazorat, vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, raqibni his qilish, ushlab olish kabi harakatlarni individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda murakkab vaziyatlarda texnik-taktik usullardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

8-10 yoshli taekvondochilarning jismoniy, maxsus va texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yisha ishlarning mazmuni o‘rganilib, bunda talabalarni zamonaviy pedagogik yondashuvlardan kelib chiqib mashg‘ulotlarni modellashtirish asosida sport faoliyati (taekvondo) yo‘nalishi talabalarining o‘quv dasturlarida o‘z aksini topgan;

Sport faoliyati (taekvondo) yo‘nalishi talabalarining 8-10 yoshli taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish ushun foydalanilgan;

Sport faoliyati (taekvondo) sportchilarining taktik-strategik mahoratini o‘stirish hamda oliy ta’lim muassasalarining sport faoliyati (taekvondo) yo‘nalishi talabalarining mahoratini oshirish tizimida foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot davomida olingan natijalar nazariy-uslubiy jihatdan asoslangan, ilmiy tadqiqotning izchil bajarilganligi, mantiqiy yondashuvga egaligi, tanlangan uslublarning tadqiqot maqsadi va vazifalariga to‘liq mosligi, xorij va yurtimiz olimlarining ilmiy-tadqiqotlaridagi ilmiy xulosalar va tavsiyalarga asoslanganligi, dissertatsiyada keltirilgan amaliy taklif va tavsiyalar 8-10 yoshli taekvondochilarning ixtisoslashtirilgan harakatlar, jismoniy, maxsus va texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi, natijalarning tegishli vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati 8-10 yoshli taekvondochilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan uslublari ishlab chiqilganligi, ularning ilmiy-uslubiy ahamiyati oshib berilganligi hamda mazkur uslublar doirasida 8-10 yoshli taekvondochilarni tayyorlash zaruratining muhimligi isbotlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, 8-10 yoshli taekvondochilarning ixtisoslashtirilgan harakatlar va texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish uslublari ishlab chiqildi hamda ushbu uslublar bo‘lajak dars, amaliy

mashg‘ulot jarayonlaridagi faoliyatlarini takomillashtirish, keng mulohazaga tayangan holda jismoniy tayyorgarlik tizimini yaratish, mavjud muammolarga nisbatan ijodiy yondashish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 8-10 yoshli taekvondochilarning ixtisoslashtirilgan harakatlar, jismoniy, maxsus va texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirishga oid tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi 8–10 yoshli taekvondochilarning jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasini aniqlash asosida sparing mashg‘ulotlarida shartli jang elementlari bilan boyitilgan maxsus harakat topshiriqlarini tayyorgarlik jarayonlariga kiritish bo‘yicha taklif va tavsiyalar Farg‘ona shahar yakkakurashlarga ixtisoslashtirilgan sport maktabi 8-10 yoshli taekvondochilar mashg‘ulot jarayoniga tatbiq qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tomonidan 2024-yil 18-dekabrda berilgan 03-16/12992-sonli ma’lumotnomasi). Natijada 8-10 yoshli taekvondochilarning taktik tayyorgarligi 12,8 % ga yaxshilangan;

8-10 yoshdagi taekvondochilarni texnik tayyorgarligini rivojlantirish uchun murakkab musobaqa sharoitlarida jang ustunligi hamda nazoratni qo‘lga kiritish imkonini beruvchi vaziyatga yo‘naltirilgan taktik qarorlar qabul qilish, tezkor hujum va qarshi hujumlar integratsiyasi hamda samarali jangovar harakatlar variantlarini tanlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani 2-son sport maktabi 8-10 yoshli taekvondochilar mashg‘ulot jarayoniga tatbiq qilingan (2024-yil 18-dekabrda berilgan 03-16/12992-sonli ma’lumotnomasi). Natijada 8-10 yoshli taekvondochilarning texnik tayyorgarligi 13,5 % ga yaxshilangan;

boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi 8-10 yoshli taekvondochilar raqibini aldamchi harakatlar bilan chalg‘itish uchun sparingda zarbalar ketma-ketligini yo‘llash va hujum zarbalariga qarshi bloklash va himoyalanish usullarini qo‘llash bo‘yicha taklif va tavsiyalar Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani 2-sport maktabi 8-10 yoshli taekvondochilar mashg‘ulot jarayoniga tatbiq etilgan (“Taek vondo nazariyasi va uslubiyati” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirining 2022 yil 17 martdagi 106-son buyrug‘iga asosan berilgan 106-029-raqamli guvohnomasi).). Natijada yosh taekvondochilarni dolyochagi-yopchagi zarbasining natijaviyligi (chap oyoq) 11,8% yaxshilangan;

8-10 yoshli taekvondochilarni hujum, himoya va qarshi hujum harakatlariga o‘rgatishda sherik bilan sparing jarayonida uzoq, o‘rta va yaqin masofada qulay vaziyatlarda ixtisoslashtirilgan o‘yin usullaridan foydalanib sportchida diqqatni jamlash, vizual nazorat, vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, raqibni his qilish, ushlab olish kabi harakatlarni individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda qo‘llash bo‘yicha taklif va tavsiyalar Chirchiq shahar sport maktabi yosh taekvondochilar mashg‘ulot jarayoniga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tomonidan 2024-yil 18-dekabrda berilgan 03-16/12992-sonli ma’lumotnomasi). Natijada texnik-taktik tayyorgarligi bo‘yicha rivojlanish dinamikasi, dolyochagi chap oyoqda harakatlar hajmi 19,1% ni, natijaviyligi 14,2% ni, yopchagi zarbasini chap oyoqda bajarishda hajmi 24,8% ni, natijaviyligi 9,3% ga yaxshilanishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot doirasida jami 10 nomdagi ilmiy ish, jumladan 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 1 tezis xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, 164 sahifa matn, 21 ta jadval, 11 ta rasm, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi, disertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Taekvondo sport turlarida tayyorlash tizimining o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobida Yakkakurashlarda ixtisoslashgan yosh sportchilar o‘quv mashg‘ulotlarda tayyorgarlikning har xil tomonlarini o‘zaro bog‘liqligi, yakkakurash sport turlarida texnik-taktik tayyorgarlik, taekvododa texnik-taktik harakatlarga o‘rgatish, taekvodochilarda texnik-taktik tayyorgarlikni nazorat qilish vositalari hamda texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirishga yo‘naltirilgan ixtisoslashtirilgan o‘yin topshiriqlari to‘g‘risida ma'lumotlar keltirilgan.

Mahalliy va xorijiy adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi yosh taekvondochilarni mashg‘ulotlarni ixtisoslashtirilgan o‘yin topshiriqlaridan foydalangan holda texnik-taktik tayyorgarlikning samarali vosita va usullarni sportchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ilmiy asoslash, yangicha ilmiy-nazariy yondashish dolzarb muammolar qatoriga kiradi. Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etishda bir qator mahalliy olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, mahalliy olimlarimizdan S.S. Tajibayev, Sh.N. Nuritdinova, B.Sh.Raxmatov, U.Sh.Tursunaliyevlar o‘zlarini darslik, o‘quv qo‘llanma, maqola va tezislarida yakkakurash sport turlarida textik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirishda harakatli o‘yinlari orqali mashg‘ulotlarni tashkil etish, sportchilarning individual xususiyatlarni inobatga olib amalga oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida yetakchi soha mutaxasisslaridan V.V.Kudin, V.V.Ageyevlar, V.S.Muntyan, Z.A.Abiyevlar jismoniy sifatlarni taekvndochilarning tayyorgarlik holatiga ta'siri, uni rivojlantirsh usullari haqida izlanishlar olib borishgan

Xorijiy yetakchi mutaxasislardan Xiaocan Cui, Ruizhe Hu, Hee Seong Jeong, M.David, O‘.Sullivan, R.Primoz yosh taekvondochilarda harakat amallariga o‘rgatish jarayonining asosida harakat ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish

jarayoni o‘yinlar yordamida, yakkakurashlar texnikasi qo‘llaniladigan holatlarning xilma xilligini o‘rganish, harakat ko‘nikmasining dinamikligini ta’minlashga qaratish haqida ma’lumotlar berib o‘tishgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning uslublari va tashkil etish”** deb nomlangan ikkinchi bobida unda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, anketa so‘rovnomasi, pedagogik kuzatuv, pedagogik-nazorat testlash, pedagogik tajriba va matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanganligi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Pedagogik tadqiqotlar to‘rtta bosqichda (2022-2025y.) tashkil etildi. Jumladan:

I bosqichda (2022-2023y) tadqiqotning umumiy yo‘nalishi belgilab olingan va muammoning bugungi kundagi holatiga baho berish uchun ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlil etilgan, tadqiqotning usullari, maqsad va vazifalari aniqlangan, olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil etish uchun dastlabki ma’lumotlar to‘plangan. Taekvondochilarning musobaqa faoliyati tahlil qilindi. Jangda tez-tez uchraydigan 20 ta vaziyat aniqlandi va bayonnomaga qayd etildi. Olingan ma’lumotlar asosida yuqori malakali murabbiylar va yuqori razryadli sportchilarlarga har bir vaziyat bo‘yicha 4 xil hal etish variantlari taklif qilingan anketa ishlab chiqildi. Anketalash natijalari har bir vaziyat bo‘yicha yechim variantlarini aniqlashga imkon berdi. Anketalash asosida “Tajriba dasturi” ga kirgan ixtisoslashtirilgan o‘yin topshiriqlari yaratildi.

II bosqichda (2023-2024y) boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi 8-10 yoshli taekvondochilarning jismoniy rivojlanganlik, texnik-taktik, funksional va jismoniy tayyorgarlik darajalarini aniqlash maqsadida joriy tadqiqotlar o‘tkazilgan. Xususan, yosh taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini nazorat qilish tartibi majmuali tarzda amalga oshirilgan.

III bosqichda (2024 y) ishlab chiqilgan mashg‘ulot uslubiyati samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajribalar tashkil etilgan, unda, boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi 8-10 yoshli taekvondochilarning ixtisoslashtirilgan harakat tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan yillik sikllarda yuklamalar hajmini turli nisbatlarda taqsimlash hisobiga sport natijalarini yaxshilashga e’tibor qaratildi. martgacha davom etdi.

IV bosqichda (2024 -2025 y) tadqiqot davomida o‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari qiyosiy tahlil qilingan, xulosalar ishlab chiqilgan va tadqiqot natijalariga asoslanib amaliy tavsiyalar tayyorlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Dissertatsiyaning **“Boshlang‘ich tayyorgarlik guruhida shug‘ullanuvchi 8-10 yoshli taekvondochilarni tayyorgarligida ixtisoslashtirilgan o‘yin topshiriqlarini qo‘llanish samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida aniqlanishicha, ixtisoslashtirilgan o‘yin topshiriqlarini tanlashdagi muammo, bugungi kunda dolzarb bo‘lgan boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi 8-10 yoshli taekvondochilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirish uchun katta ahamiyatga ega. Chunki barcha o‘yin topshiriqlari ham texnik-taktik tayyorgarlikni oshirishga yordam berishga qodir emas. Mazkur muammoni hal etish uchun biz taekvondochilarning musobaqa faoliyatini tahlil qilish jarayonida yakkama-yakka bellashuv tez-tez uchraydigan 20 ta vaziyat aniqlandi va vujudga kelgan vaziyatlarni hal etishning 4 ta variantini taklif qildik. Ushbu ma’lumotlar

asosida biz mutaxassislar orasida anketa so‘rovlarini o‘tkazdik. Mazkur tadbir bizga har bir vaziyat bo‘yicha eng samarali yechim usullarini aniqlashga imkon berdi. Anketa ma’lumotlariga tayangan holda har bir vaziyatga mos 20 ta ixtisoslashtirilgan o‘yin topshiriqlari tanlab olindi.

1-jadval

Texnik vaziyatlarni hal etishning ustuvor variantlarini aniqlash bo‘yicha natijalar

t/r vaziyatlar	Har bir yechim varianti bo‘yicha tanlovlar soni (ball/%)			
	A	B	V	G
1.	6/66,6%	1/11,1%	2/22,2%	1/11,1%
2.	2/22,2%	2/22,2%	5/55,5%	1/11,1%
3.	7/77,7%	3/33,3%	0	0
4.	0	3/33,3%	7/77,7%	0
5.	8/88,8%	0	2/22,2%	0
6.	2/22,2%	4/44,4%	4/44,4%	0
7.	1/11,1%	5/55,5%	3/33,3%	1/11,1%
8.	2/22,2%	4/44,4%	3/33,3%	1/11,1%
9.	2/22,2%	0	8/88,8%	0
10.	6/66,6%	4/44,4%	0	0
11.	1/11,1%	5/55,5%	1/11,1%	3/33,3%
12.	3/33,3%	5/55,5%	2/22,2%	0
13.	6/66,6%	2/22,2%	2/22,2%	0
14.	8/88,8%	0	2/22,2%	0
15.	2/22,2%	8/88,8%	0	0
16.	1/11,1%	3/33,3%	0	0
17.	6/66,6%	3/33,3%	1/11,1%	0
18.	5/55,5%	3/33,3%	2/22,2%	0
19.	6/66,6%	3/33,3%	1/11,1%	0
20.	5/55,5%	2/22,2%	3/33,3%	0

1-vaziyat. Sparing boshlanishi, ochko ballarini birinchi bo‘lib (ishlab) olish.

2-vaziyat. Hujum. Hujum chizig‘idan ketishda raqibga to‘siq yaratish.

3-vaziyat. Hujumchini qarshi olish va unga qarshi zarbalar yo‘llash.

4-vaziyat. Sportchi chegaralangan vaqt bilan uchinchi raundda ochkolar bo‘yicha ustunlikka ega.

5-vaziyat. Raqib turish o‘zgarishiga e’tibor bermaydi.

6-vaziyat. Raqib yaqin (chiziqning ichida) zonada joylashgan.

7-vaziyat. Oxirgi raundda sportchi ikki ball ustunlikka ega.

8-vaziyat. Oxirgi raund sportchi ikki ball yutdi.

9-vaziyat. Burilish texnikasida raqibga hujum.

10-vaziyat. Raqib yaqin zonada ustunlikka ega.

11-vaziyat. Raqib tezlik bo‘yicha ustunlikka ega.

12-vaziyat. Raqibning bo‘yida ustunlikka ega.

13-vaziyat. Raqib kuch jihatdan ustunlikka ega.

14-vaziyat. Raqib chegaralangan vaqt bilan ochkolar bo‘yicha (2-4 ball) ustunlikka ega.

15-vaziyat. Vaziyat maydoncha burchagida.

16-vaziyat. Raqib jang olib borish sur’ati bo‘yicha (tempda) ustunlikka ega.

17-vaziyat. Raqib texnik zahira bo‘yicha ustunlikka ega.


18-vaziyat. Raqibga qarshi hujum afzal.

19-vaziyat. Sportchi universal (hujum kabi, qarshi hujumda ham a’lo darajada ishlaydi).

20-vaziyat. Raqib doim boshni nishonga oladi.

Metodik yondashuvda sparing boshlanishida tashabbusni qo‘lga olish, hujum va qarshi hujum harakatlarini samarali tashkil etish, shuningdek, raqibning ustun tomonlarini hisobga olgan holda taktika tanlashga alohida e’tibor qaratildi. Masalan, raqib tezlik, kuch yoki bo‘y jihatdan ustun bo‘lgan sharoitlarda sportchilarga moslashuvchan taktik usullarni qo‘llash, masofani to‘g‘ri tanlash hamda zarbalarni kombinatsiyalash orqali ustunlikni kamaytirish bo‘yicha mashqlar bajarildi. Bundan tashqari, vaqt cheklangan yoki ochkolar farqi mavjud bo‘lgan vaziyatlarda sportchilarning psixologik barqarorligi va strategik fikrlashini rivojlantirish maqsadida maxsus mashg‘ulot topshiriqlari qo‘llanildi. Maydonchaning burchak qismida yoki yaqin masofada olib boriladigan jang elementlari ham alohida mashq qilinib, sportchilarda fazoviy orientatsiya va tezkor taktik moslashuv ko‘nikmalari shakllantirildi. Tadqiqot jarayonida ushbu vaziyatli mashqlar sportchilarning hujum, qarshi hujum va himoya harakatlarini uyg‘un ravishda rivojlantirishga yordam berishi kuzatildi. Natijada, sportchilarda texnik harakatlarni turli sharoitlarda samarali qo‘llash, raqibning harakatlarini oldindan taxmin qilish hamda sparing jarayonida optimal qaror qabul qilish ko‘nikmalari sezilarli darajada takomillashdi.

Boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi yosh taekvondochilarda murakkab vaziyatlarda texnik-taktik usullardan foydalanishni shakllantirish metodikasi sportchilarni har tomonlama tayyorlash jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ushbu metodik yondashuv mashg‘ulot jarayonida hujum, himoya hamda qarshi hujum harakatlarini o‘rgatish, ularni amaliy vaziyatlarda samarali qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Mashg‘ulotlar jarayonida yosh taekvondochilarga zarba berish vaqtida hujum va qarshi hujum harakatlarini uyg‘un holda bajarish, raqib harakatiga mos ravishda tezkor javob qaytarish hamda texnik elementlarni to‘g‘ri qo‘llash o‘rgatiladi. Shu bilan birga, sparing mashqlari orqali sportchilar uzoq, o‘rta va yaqin masofalarda harakatlanish, vaziyatni to‘g‘ri baholash va samarali texnik harakatlarni amalga oshirish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bunday vaziyatlarni mashg‘ulot jarayonida sun’iy ravishda yaratish yosh sportchilarning taktik fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi (1-rasmga qarang). Shu bilan birga, mashg‘ulotlarda himoya va qarshi harakatlarning samarali usullari o‘rgatiladi. Jumladan, tana va qo‘l harakatlari yordamida, orqaga yoki yon tomonga chekinish orqali himoyalanish, yaqin masofada ishlash, doimiy manevr harakatlarini bajarish hamda joyda turib qolmasdan faol harakat qilish kabi ko‘nikmalar shakllantiriladi. Bundan tashqari, raqibni ketma-ket zarbalar orqali maydon chegarasiga siqib chiqarish, chiziqdan chiqishga majbur qilish yoki uning hujumiga yo‘l qo‘ymaslik kabi taktik usullar ham qo‘llaniladi. Mashg‘ulotlarda aylanish zarbalari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarbalarni bajarish ham takomillashtiriladi, shuningdek murabbiyning ko‘rsatmalarini aniq eshitish va bajarish malakalari rivojlantiriladi**.**



1-rasm. 8-10 yoshli taekvondochilarning texnik-taktik vaziyatlarni hal etishning ustuvor variantlari

Texnik-taktik tayyorgarlik sportchining musobaqa jarayonida samarali harakat qilishini ta’minlaydigan muhim omillardan biridir. U nafaqat texnik harakatlarni to‘g‘ri bajarishni, balki ularni muayyan o‘yin yoki bellashuv vaziyatida maqsadga muvofiq qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayon sportchida tezkor fikrlash, vaziyatni to‘g‘ri baholash va optimal qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Texnik va taktik tayyorgarlikning uyg‘un rivojlanishi sport faoliyatining samaradorligini oshiradi hamda musobaqa natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli mashg‘ulotlarni ilmiy-metodik asosda tashkil etish, texnik elementlarni taktik vazifalar bilan bog‘liq holda o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Biz tadqiqot davomida yosh taekvondochilarni murakkab vaziyatlarda texnik-taktik harakatlarga xos maxsus mashqlarni amalga oshirish ko‘nikmalari majmuasi ishlab chiqildi. Har bir sinaluvchi taktik harakatlarni bajarish mahorati uchun ma’lum ballar miqdoriga ega bo‘ldi: jangni olib borish taktikasini amalga oshirish mahorati, jang jarayonida qayta sozlanish, vaziyatli va tayyorgarlik harakatlarni bajarish mahorati bilan ifodalandi (5-ilovada keltirib o‘tilgan). Har bir sportchi bo‘yicha taktik tayyorgarlikning u yoki boshqa tarkibiy qismi o‘zgarayotganligini kuzatish mumkin (taktik tayyorgarlikni baholash bayonnomasi 3-ilova). Sportchilarda texnik-taktik harakatlar sezilarli darajada o‘sganligi kuzatildi. Nazorat guruhida ham o‘zgarish sodir bo‘ldi, biroq ahamiyatli darajada emas. Har bir sinaluvchi texnik harakatlarni bajarish mahorati uchun ma’lum ballar miqdoriga ega bo‘ldi: jangni olib borish taktikasini amalga oshirish mahorati, jang jarayonida qayta sozlanish, vaziyatli va tayyorgarlik harakatlarni bajarish mahorati (5-ilovada keltirib o‘tilgan). Har bir sportchi bo‘yicha taktik tayyorgarlikning u yoki boshqa tarkibiy qismi o‘zgarayotganligini kuzatish mumkin (taktik tayyorgarlikni baholash bayonnomasi 3-ilovada keltirib o‘tilgan). Organizmning funksional imkoniyatlari har doim ham biron narsada individual farq qiladi. Xattoki bir xil yoshdagi, jinsdagi va dastlabki tayyorgarlik darajalariga ega bo‘lgan odamlar guruhida ham absolyut bir xil imkoniyatlari bo‘lgan ikki kishini topib bo‘lmaydi. Individual farqlar harakatlarni o‘zlashtirishda ham va organizmni jismoniy yuklamaga reaksiyasi xarakterida ham, uning adaptatsion (moslashuvchanlik) qayta qurilishida ham namoyon bo‘ladi. Buning barchasi, yosh sportchilarni tayyorlash jarayonini qat’iy individuallashtirishga majbur qiladi. Bunday mashqlar yordamida yosh sportchilarda aldamchi harakatlardan foydalanish, turli ishoralar orqali harakatni boshqarish, jamoaviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda ikki tomonlama nazoratni amalga oshirish malakalari rivojlantiriladi. Shu bilan birga, sherik bilan mashq bajarish jarayonida zarbalarga to‘siq qo‘yish, harakat davomida oyoq va qo‘l yordamida blok qo‘llash kabi himoya elementlari ham takomillashtiriladi. Quyida keltirib o‘tilgan mashqlar kompleksi bajaralish davomiyligi 20-25 martagacha, dam olish oraliqlari 25-30 soniyani tashkil etdi. Har bir mashqni bajarish jarayonida belgilab berilgan tashkil-uslubiy ko‘rsatmalarga amal qilindi. Harakat ko‘nikmalari va malakalariga o‘rgatishning muvaffaqiyatini ko‘pincha koordinatsion qobiliyatlarning darajalari bilan bog‘lashadi. Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni 8 va 11 yoshlar o‘rtasida shakllanishning jadal fazasi bilan tavsiflanadi. Ayrim ishlarda, koordinatsion qobiliyatlar rivojlanishning senzitiv fazalari qiz bolalarda 7 dan to 11 yoshgacha va o‘g‘il bolalarda 7 dan to 12 yoshgacha bo‘ladi.

2-jadval

8-10 taekvondochilarni murakkab vaziyatlardan texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantiruvchi mashqlar majmuasi

T/r	Vaziyatlarga xos mashqlar mazmuni	Me'yor	Dam olish orolig'i	Tashkiliy -uslubiy ko'rsatmalar
1	Sherik bilan chiziq chetida turib chiziqdan chiqib ketmagan xolatda lapada berilayotgan zarbaga to'siq qo'yish.	10-15 marta	15-20 soniya	Raqibni aldamchi harakatlar bilan chalg'itish
2	Harakat davomida oyoqni tushurmagan xolda raqibga ketma-ket zarba yo'llash berilayotgan zarbaga oyoq va qo'llarda blok qo'yish	10-15 marta	20-25 soniya	Raqibni aldamchi harakatlar bilan chalg'itish
3	Uch kishi bo'lib mashqni bajaruvchi o'rtada turadi va bosh qismiga shlem kiyib ikki yondan kelayotgan zarbaga manyov harakat orqali zarbani o'tkazib yuboradi.	8-10 marta	15-20 soniya	Raqibni aldamchi harakatlar bilan chalg'itish
4	Sparingni boshlanishi bilan raqib spotchining tana qismiga kim tezroq ochko olish	10-14 marta	15-20 soniya	Tezkorlik bilan zarba yo'llash
5	Hujumchini kutib olish va qarshi zarba yo'llash (chalishtirish (raznojka))	8-10 marta	20-25 soniya	Raqibni aldamchi harakatlar bilan chalg'itish
6	Sportchi vaqtni cheklash bilan uchinchi raundda ochkolar bo'yicha ustunlikka ega, ikkinchi raqam bilan ishni amalga oshirish	10-12 marta	20-25 soniya	Ochko oldirib qo'ymaslik
7	Raqib turish holatini almashishiga e'tibor bermaydi, keyinchalik hujum uyushtirish bilan aldamchi harakatlarni bajarish	14-18 marta	20-25 soniya	Maksimal aldamchi harakatlarni bajarish
8	Raqib yaqin (o'lik) zonada joylashadi, keyinchalik boshga dollyo chagi zarba yo'llash bilan orqaga qaytish.	10-12 marta	20-25 soniya	Ochko oldirib qo'ymaslik
9	Protektor kiygan holatda sherik oldingi oyoqda qorin qismiga 30 soniya davomida sparing tushish	10-15 marta	25-30 soniya	Boshga zarba berish taqiqlanadi
10	Erkin jang paytida xavfli xududga kirganda zarba bilan ushlab olish	10-15 marta	25-30 soniya	Ochko oldirib qo'ymaslik
11	Shlem kiygan holatda sherik oldingi oyoqda qorin qismiga 30 soniya davomida sparing tushish	10-15 marta	25-30 soniya	Aniqlikni oshiradi
12	Klinch holatida 30 soniya sparing tushib kim ko'proq ochko olish	8-10 marta	15-20 soniya	Tezlikni oshiradi

Hujum, qarshi hujum va himoya texnikalarini bajarishda sportchining koordinatsion qobiliyatlari yuqori darajada rivojlanishi Bu, har bir harakatning aniq va samarali bajarilishi, murakkab sharoitlarda tezda qarorlar qabul qilish va harakatlarni o‘zaro muvofiqlashtirishni talab qiladi. Mashg‘ulot jarayonida koordinatsion qobiliyatni rivojlantirish uchun maxsus mashqlar va metodik yondoshuvlar qo‘llanilishi, va har bir harakatning yuqori murakkablikda amalga oshirilishi zarur. Shuningdek, hujum va himoya harakatlarini birlashtirib, sportchi bir vaqtning o‘zida zarba berishni va himoyalanishni o‘zlashtirishi. Masalan, sportchi avval zarba berib, darhol himoya pozitsiyasiga o‘tishi yoki qarshi hujumga o‘tishi kerak. So‘ngra ko‘rsatib o‘tilgan vazifalarni maydon bo‘ylab manevr qilish bilan birgalikda bajarish zarur, bu esa fazoda oriyentirlanish qobiliyatini namoyon etishni talab qiladi. Murakkablikni yanada oshirish, harakat faoliyatini qayta qurish qobiliyati hisobiga bellashuvni olib borish uslubini o‘zgartirish zaruriyatidan iborat.

Keltirib o‘tilgan rasmda murakkab vaziyatlarda texnik-taktik tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan metodik tizim izchil va bosqichma-bosqich tarzda ifodalangan. Ushbu tizim yosh taekvondochilar mashg‘ulotida qo‘llanildi hamda ularning hujum, himoya va qarshi hujum faoliyatini kompleks ravishda shakllantirishga xizmat qildi (2-rasmga qarang).

Birinchi blokda asosiy komponent sifatida hujum, himoya va qarshi hujum harakatlarini o‘rgatish amalga oshirildi. Bu bosqichda yosh taekvondochilar fundamental texnik elementlarni egalladi, zarba berish, zarbani qaytarish va qarshi zarba bilan javob berishning biomekanik asoslari shakllantirildi. Ushbu jarayon keyingi murakkab kombinatsiyalarni bajarish uchun zarur poydevorni yaratdi. O‘quv-mashg‘ulot jarayonining ixtisoslashtirilgan yo‘nalishi tanlangan faoliyatda chuqur takomillashuvni nazarda tutadi.

Ikkinchi bosqichda zarba vaqtida hujum va qarshi hujum harakatlarini bajarish ko‘nikmalari rivojlantirildi. Bu jarayonda vaqtni to‘g‘ri his qilish, reaksiya tezligi va tezkor qaror qabul qilish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi. Natijada yosh taekvondochilar dinamik vaziyatlarda samarali harakat qilishga moslashdi.

Uchinchi blok sparring jarayonida turli masofalarda (uzoq, o‘rta va yaqin) qulay holatni egallash va uni saqlab qolish mashqlari orqali amalga oshirildi. Bu esa fazoviy mo‘ljal olish, masofani nazorat qilish va vaziyatga moslashuvchan harakat qilish ko‘nikmalarini mustahkamladi.

To‘rtinchi bosqich ixtisoslashtirilgan o‘yin usullari asosida tashkil etildi. Unda aldamchi harakatlar, tezkor qarorlar ketma-ketligi, signalga asoslangan reaksiyalar, jamoaviy baholash hamda ikki tomonlama nazorat elementlari mashg‘ulot jarayonida qo‘llanildi. Ushbu vaziyatlarga xos bo‘lgan ixtisoslashgan harakat ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o‘yinlar tanlab olinib mashg‘ulot jarayoniga kiritilgan. Ixtisoslashtirilgan o‘yin usullarini tayyorgarlik bosqichida “Aldamchi usullar”, “Axil qator”, “Man qilinadigan ishora”, “Jamoaga ball keltir”, “Ikki yoqlama nazorat” va boshqa o‘yinlardan foydalanildi. Va, Ixtisoslashtirilgan o‘yin usullaridan foydalanib sportchida diqqatni jamlash, ko‘rish, vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, raqibni xis qilish, jamoaviy ahillik, tashqi ta’sirlarga bardoshli bo‘lish kabi ko‘nikmalar shakillandi. Bu usullar yosh taekvondochilarning psixomotor va kognitiv faolligini oshirishga xizmat qildi.



2- rasm. Murakkab vaziyatlarda tezkor qabul qilish qobiliyatini oshirishirishning modul sxemasi

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**Boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi yosh taekvondochilarni tadqiqot davomida olingan jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari o‘sish dinamikasi**” deb nomlanadi. mazkur bobda 8-10 yoshli taekvondochilarning jismoniy va maxsus tayyorgarligini darajalarini tavsiflaydigan sinov testlari tanlab olindi. Tajrida jarayonining mashg‘ulot olib boorish davomida bo‘yicha boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi 8-10 yoshli taekvondochilarni ixtisoslashtirilgan xarakat tayyorgarligini takomillashtirish dinamikasi hamda tadqiqot jarayonini yakunida nazorat va tajriba guruhlarida 8-11 yoshli taekvondochilarning jismoniy va maxsus tayyorgarlik darajalarini taqqoslash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalarining tahlili bayon qilingan**.**

Mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlar materiallarini tahlil qilish va shaxsiy amaliy tajribamiz ma’lumotlarini umumlashtirish asosida yosh taekvndochilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajalarini tavsiflaydigan sakkizta sinov testlari tanlab olindi.

tajriba (n=14) va nazorat (n=14) guruhlari 8-10 yoshli taekvondochi - sinaluvchilarining jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari statistik xarakteristikalarini tadqiqot davomida o‘zgarish dinamikasini natijalari keltirilgan bo‘lib, tezkorlik: 1) – 30 m. masofaga yugurish bo‘yicha TGda tajriba boshida vaqti 6, 36 (s.) ni ko‘rsatgan bo‘lsa tadqiqot yakunida bu natija o‘rtacha 5, 49 (s.)ga yaxshilanib ($p<0,01$) nisbiy o‘sish 13, 47ni tashkil etgan. Nazorat guruhida tajriba boshida vaqti 6, 46 (s.) ni ko‘rsatgan bo‘lsa tadqiqot yakunida 5,94 natija qayd etilgan, farqlar ishonchsiz ($p>0,05$); chaqqonlik: 2- 3x10 m. masofaga moksimon yugurish bo‘yicha TG tajriba boshida 7,83 (s.)ni tadqiqot yakunida 6, 62 sekuntga yaxshilanib ($p<0,01$) nisbiy o‘sish 15, 49 ni tashkil etgan; Nazorat guruhida tajriba boshida vaqti 7, 62 (s.) ni ko‘rsatgan bo‘lsa tadqiqot yakunida 6,92 natija qayd etilgan, farqlar ishonchsiz ($p>0,05$) nisbiy o‘sish 9,18ni ko‘rsatgan. Egiluvchanlik: 3- gimnastika o‘rindig‘ida oyoq tizzalarini bukmay max oldinga egilish testi bo‘yicha Tg tadqiqot boshida o‘rtacha 7,37 (sm.) tajriba yakunida o‘rtacha 9,39 smni, nisbiy o‘sish 27,43% ni tashkil etganini farqlar ishonchliligi yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin ($p<0,01$) ;


NG gimnastika o‘rindig‘ida oyoq tizzalarini bukmay maksimal oldinga egilish testi bo‘yicha tajribani boshida 7,23 sm, tadqiqot yakunida 8,12 sm, nisbiy o‘sish 12, 29 ($p<0,05$) ni ko‘rsatgan. chidamlilik: 4-bir daqiqada davomida arqonda sakrash testi bo‘yicha Tajriba guruhi tadqiqot boshida sakrashlar soni 46,22 (marta), tadqiqotning yakuniga borib 53, 83 martaga oshib, nisbiy o‘sish 16, 47 ($p<0,01$) ni ko‘rsatgan. Nazorat guruhida esa tadqiqot boshida arqonda sakrashlar soni 47,33 (marta), tadqiqotning yakuniga borib 51, 81 martaga oshib, nisbiy o‘sish 9,46 ($p>0,05$) ni ko‘rsatgan. Tajriba guruhi 5- qo‘llarni oldinga cho‘zib necha soniyada o‘tirib turishlar bo‘yicha olingan nazorat testida tadqiqot boshida 33,44 (marta) tadqiqot yakunida o‘tirib turishlar soni 39,22 martani ($p<0,01$) nazorat guruhida bu ko‘rsatkich ishonchsiz, tadqiqot boshida 33,89 martani yakunida bo‘lsa 37,11ni ko‘rsatdi. 6-qo‘llarni oldinga cho‘zib necha marta o‘tirib turish bo‘yicha TGda tajriba boshida 37,51 (soniya) tajriba yakunida 31,49 soniyani nisbiy o‘sish ko‘rsatgichi 16,04 ni ($p<0,01$), NGda tajriba boshida 36,75 (soniya) tajriba yakunida 33,13 soniyani nisbiy o‘sish ko‘rsatgichi 9,83 ni ko‘rsatdi ($p>0,05$); Kuch: 7- Turgan joyida uzunlikka sakrash bo‘yicha TGda tajriba boshida 1,79 (sm.) tajriba yakunida

3-jadval

Tajriba va nazorat guruhlari 8-10 yoshli taekvondochilari - sinaluvchilarining umumiy jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari statistik xarakteristikalarini tadqiqot davomida o‘zgarish dinamikasini solishtirish (n=28)

Testlar	Guruh	Tajriba boshi			Tajriba oxiri			AF	NF	t	p
		$\overline{X}$	σ	V %	$\overline{X}$	σ	V %				
30 metrga yugurish (soniya)	TG	6,35	0,95	14,95	5,49	0,78	14,13	0,85	13,47	2,96	<0,01
	NG	6,46	0,95	14,64	5,94	0,86	14,52	0,53	8,15	1,75	>0,05
3x10 metrga moksimon yugurish (soniya)	TG	7,83	1,33	16,97	6,62	1,07	16,15	1,21	15,49	3,02	<0,01
	NG	7,62	1,27	16,62	6,92	1,14	16,53	0,70	9,18	1,74	>0,05
Gimnastika o‘rindig‘ida oyoq tizzalarini bukmay oldingga egilish	TG	7,37	1,32	17,96	9,39	1,61	17,14	2,02	27,43	4,12	<0,001
	NG	7,23	1,27	17,61	8,12	1,26	15,51	0,89	12,29	2,10	<0,05
Bir daqiqada davomida arqonda sakrashlar soni (marta	TG	46,22	7,38	15,97	53,83	8,14	15,12	7,61	16,47	2,94	<0,01
	NG	47,33	7,40	15,62	51,81	8,02	15,48	4,48	9,46	1,74	>0,05
Qo‘llarni oldinga cho‘zib 35 soniyada o‘tirib turishlar	TG	33,44	5,34	15,98	39,22	5,94	15,14	5,78	17,28	3,07	<0,01
	NG	33,89	5,29	15,61	37,11	5,75	15,49	3,22	9,51	1,75	>0,05
Qo‘llarni oldinga cho‘zib 35 marta o‘tirib turish(soniya)	TG	37,51	6,75	17,99	31,49	5,40	17,15	6,02	16,04	2,95	<0,01
	NG	36,75	6,48	17,63	33,13	5,80	17,50	3,61	9,83	1,76	>0,05
Turgan joyida uzunlikka sakrash (sm)	TG	1,79	0,27	14,97	2,19	0,31	14,16	0,40	22,46	4,16	<0,001
	NG	1,84	0,27	14,62	2,04	0,30	14,49	0,20	10,73	2,10	<0,05
Tayangan holda qo‘llarni bukib yozishlar soni (marta).	TG	17,92	3,04	16,94	21,33	3,44	16,13	3,41	19,03	3,15	<0,01
	NG	17,64	2,93	16,62	19,44	3,21	16,50	1,79	10,17	1,75	>0,05

bu ko‘rsatkich yaxshilanganini 2,19 sm, nisbiy o‘sish 22,46ni tashkil etgan($p<0,001$). NGning ko‘rsatkichlari tajriba boshida 1,84 sm tajriba yakunida 2,04smni nisbiy o‘sish ko‘rsatkich 10,73ni tashkil etdi($p<0,05$). 8 -yerga tayangan holda qo‘llarni bukib yozish bo‘yicha TGda tajriba boshida 17,92martani tajribani yakunida 21,33 martani nisbiy o‘sish ko‘rsatkichi 19, 03ni Ngda bu nazorat testi bo‘yicha 17,64 martani tadqiqot oxirida 19,44 martani nisbiy ko‘rsatkichni ko‘rsatdi ($p>0,05$). Shuning bilan birga, tajriba va nazoat guruhi sinaluvchilarining tajriba yakunida qayd etilgan jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari asosida aniqlangan variatsiya koeffitsientlari qiymatlari tajriba guruhida V=14,62 % bilan V=V=17,61 % oraligida, nazorat guruhida bo‘lsa bu ko‘rsatkichlar guruhida V=14,52 % bilan V=V=17,50 % oraligida tebranishi kuzatildi.



3-rasm. Tajriba va nazorat guruhlari 8-10 yoshli taekvondochilari - sinaluvchilarining umumiy jismoniy tayyorgarligi darajasi o‘rtacha arifmetik qiymatlarining tajriba davomida nisbiy o‘sishlarini solishtirish diagrammasi (foizlarda)

Yuqorida keltirilgan jadvallarda va rasmda ifodalangan diagrammadagi ma’lumotlarni tahlil qilish, tajriba va nazorat guruhlari sinaluvchilarini tajriba yakunida umumiy jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlarining o‘rtacha arifmetik qiymatlarini nisbiy farqlari ahamiyatga molik darajada farqlari ko‘rinib turibdi. Jumladan, o‘rganilgan sakkizta jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari o‘rtacha arifmetik qiymatlarining nisbiy farqlari o‘rtachasi 10,17 foizni tashkil etdi. Yuqorida qayd etilgan natijalar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, olib borilgan ilmiy tadqiqotimiz davomida an’anaviy mashg‘ulotlarda shug‘ullanishni davom ettirgan NG sinaluvshilarini tajriba

boshi va oxirida erishgan natijalari o‘rtasidagi farq aytarli darajada o‘smaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlar materiallarini tahlil qilish va shaxsiy amaliy tajribamiz ma’lumotlarini umumlashtirish asosida maxsus o‘yin vositalari yordamida yosh taekvndochilarning ixtisoslashtirilgan harakat tayyorgarligini takomillashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish samaradorligini baholash uchun texnik tayyorgarlik darajalarini tavsiflaydigan o‘nta sinov testlari tanlab olindi. Tajriba guruhi 8-10 yoshli taekvondochilari - sinaluvchilarini tadqiqot boshida maxsus jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari va ularning statistik xarakteristikalari 4- jadvalda keltirilgan.

Tajriba guruhida: 1 – dolyo chagi zarbasini tananing momtom qismiga stoykani almashtirib tepish tadqiqotning boshida 18, 94 ni ko‘rsatgan bo‘lsa bu tadqiqot yakunida 15,33 (s.)ga, nisbiy o‘sish 19, 10 ko‘tarilgan ($p<0,001$); bo‘lsa aynan shu nazorat testi bo‘yicha nazorat guruhi sinaluvchilarining o‘rtacha ko‘rsatgichlari tadqiqotning boshida 18,61ni ko‘rsatgan bo‘lsa bu tadqiqot yakunida 16,77 (s.)ga, nisbiy o‘sish 10,24%ni tashkil etgan, qoniqarli ($p<0,05$); tajriba guruhining 2- tvit chagi zarbasini 20 s. davomida ikkala oyoqda momtom qismiga almashib tepishlar soni dastlab 15, 56 ni tadqiqot yakunida 19,04 martaga oshgan, nisbiy o‘sish 22,43% ($p<0,01$)ni ko‘rsatgan bo‘lsa, 2- tvit chagi zarbasini 20 s. davomida ikkala oyoqda momtom qismiga almashib tepishlar soni bo‘yicha nazorat guruhi dastlab 15, 72 ni tadqiqot yakunida 17,32 martaga etgan, nisbiy o‘sish 10,14% farqlar ishonchsiz ($p>0,05$)ligi ko‘rishimiz mumkin; tezkorlik: 3- dolyo chagi zarbasini 10 m. masofada o‘ng oyoqda max bajarishlar soni tajriba guruhida tajriba boshida 16,89%ni tashkil etgan bo‘lsa, bu natija tajribani yakunida yuqorilaganini 21,28% martaga oshganini ko‘rishimiz mumkin, nisbiy o‘sish 25, 99% ($p<0,001$); nazorat guruhida bu test bo‘yicha tajriba boshida 17,28%ni tashkil etgan bo‘lsa, bu natija tajribani yakunida qoniqarli 19,27% martani ko‘rishimiz mumkin, nisbiy o‘sish 11, 51% ($p<0,05$); tajriba guruhining 4-dolyo chagi zarbasini 10 m. masofada chap oyoqda max bajarishlar soni tadqiqotni boshida 17,83%ni yakuniga borib 21,56 martaga yaxshilangan($p<0,01$)nini ko‘rsak, ushbu test natijalari nazorat guruhida 10 m. masofada chap oyoqda max bajarishlar soni tadqiqotni boshida 18,06%ni yakuniga borib 19,86 martani ko‘rsatgan farqlar ishonchsiz ($p>0,05$) bo‘ldi. Tajriba guruhining egiluvchanlik: 5- yaqin masofada 10 s. davomida raqibning olgul qismiga o‘ng oyoqda anura neryo chagi, pakura neryo chagi oyoqni aylantirishlar soni avval 11,22%ni yakunida bu ko‘rsatgiya yaxshilanganini 13,38 marta martaga etganini ko‘rishimiz mumkin($p<0,01$); nazorat guruhi sinaluvchilarining 5- yaqin masofada 10 s. davomida raqibning olgul qismiga o‘ng oyoqda anura neryo chagi, pakura neryo chagi oyoqni aylantirishlar soni avval 10,94 %ni yakunida bu ko‘rsatgich 11,91 marta marta ($p>0,05$); 6- yaqin masofada 10 s. davomida tajriba guruhining raqibning olgul qismiga chap oyoqda anura neryo chagi, pakura neryo chagi oyoqni aylantirib teпishlar soni 13,00 martaga ortgan, nisbiy o‘sish 21,88%ga o‘sganini kuzatish mumkin($p<0,01$) natijalar ancha yaxshilang, nazorat guruhida yaqin masofada 10 s. davomida raqibning olgul qismiga chap oyoqda anura neryo chagi, pakura neryo chagi oyoqni aylantirib teпishlar soni tajribani yakunida 11,63 martani tashkil qilgan, o‘rtacha nisbiy o‘sish 10,16% ($p>0,05$);


4 -jadval

Tajriba va nazorat guruhlari 8-10 yoshli tekvondochilari - sinaluvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari statistik xarakteristikalarini tadqiqot davomida o‘zgarish dinamikasini solishtirish (n=28)

Test	Guruh	Tajriba boshi			Tajriba oxiri			AF	NF	t	p
		$\overline{X}$	σ	V, %	$\overline{X}$	σ	V, %				
1	TG	18,94	3,03	15,99	15,33	2,32	15,14	3,62	19,10	4,02	<0,001
	NG	18,61	2,91	15,64	16,71	2,59	15,50	1,91	10,24	2,08	<0,05
2	TG	15,56	2,64	16,97	19,04	3,08	16,16	3,49	22,43	3,65	<0,01
	NG	15,72	2,61	16,61	17,32	2,85	16,46	1,59	10,14	1,75	>0,05
3	TG	16,89	2,70	15,98	21,28	3,22	15,13	4,39	25,99	4,43	<0,001
	NG	17,28	2,69	15,59	19,27	2,99	15,52	1,99	11,51	2,10	<0,05
4	TG	17,83	3,03	16,99	21,56	3,48	16,14	3,72	20,87	3,42	<0,01
	NG	18,06	3,00	16,62	19,86	3,27	16,49	1,80	9,97	1,72	>0,05
5	TG	11,22	1,68	14,97	13,38	1,89	14,12	2,16	19,26	3,63	<0,01
	NG	10,94	1,60	14,63	11,91	1,72	14,46	0,96	8,78	1,73	>0,05
6	TG	10,67	1,81	16,98	13,00	2,10	16,15	2,33	21,88	3,57	<0,01
	NG	10,56	1,75	16,62	11,63	1,92	16,49	1,07	10,16	1,75	>0,05
7	TG	12,67	2,03	15,99	15,89	2,40	15,13	3,22	25,44	4,35	<0,001
	NG	12,89	2,02	15,63	14,37	2,23	15,48	1,48	11,51	2,10	<0,05
8	TG	10,33	1,75	16,97	12,90	2,11	16,34	2,56	24,80	3,97	<0,001
	NG	10,46	1,74	16,64	11,74	1,93	16,47	1,28	12,27	2,09	<0,05
9	TG	34,94	5,58	15,98	42,06	6,37	15,15	7,11	20,35	3,56	<0,01
	NG	34,22	5,34	15,61	37,50	5,80	15,47	3,28	9,58	1,76	>0,05
10	TG	31,78	4,76	14,97	37,79	5,33	14,11	6,02	18,93	3,57	<0,01
	NG	31,39	4,58	14,59	34,21	4,96	14,50	2,82	8,99	1,77	>0,05

Tajriba guruhi sinaluvchilari chidamlilik: 7 -Yop chagi olgul zarbasini o‘ng oyoqda 10 metr masofaga fishkalar orasidan o‘tib tepib borishlar bo‘yicha yuqori 12,67%dan 15,89 martaga yuqorilagan, nisbiy o‘sish 25,44%ga ko‘tarilgan ($p<0,001$); nazorat guruhida 12,89 %dan 14,37% martaga, 11,51 % ($P<0,05$); 8- Yop chagi olgul zarbasini chap oyoqda 10 metr masofaga fishkalar orasidan o‘tib tepib borishlar bo‘yicha tajriba guruhi sinaluvchilaring o‘rtacha tadqiqot boshidagi terishlar soni 10,33%dan 12,90% (marta)ga ko‘tarilgan, nisbiy o‘sish 24,80%ga yuqori natijaga erishilgan($p<0,001$), huddi shunday test natijalari bo‘yicha nazorat guruhi sinaluvchilari tepishlar soni dastlab 15, 56 ni tadqiqot yakunida 19,04 martaga oshgan, nisbiy o‘sish 22,43% ($p<0,01$)ni ko‘rsatgan bo‘lsa, 2- tvit chagi zarbasini 20 s. davomida ikkala oyoqda momtom qismiga almashib tepishlar soni bo‘yicha nazorat guruhi dastlab 15, 72 ni tadqiqot yakunida 17,32 martaga etgan, nisbiy o‘sish 10,14% farqlar ishonchsiz ($p>0,05$)ligi ko‘rishimiz mumkin; tezkorlik: 3- dolyo chagi zarbasini 10 m. masofada o‘ng oyoqda max bajarishlar soni tajriba guruhida tajriba boshida 16,89%ni tashkil etgan bo‘lsa, bu natija tajribani yakunida yuqorilaganini 21,28% martaga oshganini ko‘rishimiz mumkin, nisbiy o‘sish 25, 99% ($p<0,001$); nazorat guruhida bu test bo‘yicha tajriba boshida 17,28%ni tashkil etgan bo‘lsa, bu natija tajribani yakunida qoniqarli 19,27% martani ko‘rishimiz mumkin, nisbiy o‘sish 11, 51% ($p<0,05$); tajriba guruhining 4-dolyo chagi zarbasini 10 m. masofada chap oyoqda max bajarishlar soni tadqiqotni boshida 17,83%ni yakuniga borib 21,56 martaga yaxshilangan($p<0,01$)nini ko‘rsak, ushbu test natijalari nazorat guruhida 10 m. masofada chap oyoqda max bajarishlar soni tadqiqotni boshida 18,06%ni yakuniga borib 19,86 martani ko‘rsatgan farqlar ishonchsiz ($p>0,05$) bo‘ldi. Tajriba guruhining egiluvchanlik: 5- yaqin masofada 10 s. davomida raqibning olgul qismiga o‘ng oyoqda anura neryo chagi, pakura neryo chagi oyoqni aylantirishlar soni avval 11,22%ni yakunida bu ko‘rsatgiya yaxshilanganini 13,38 marta martaga etganini ko‘rishimiz mumkin($p<0,01$); nazorat guruhi sinaluvchilarining 5-yaqin masofada 10 s. davomida raqibning olgul qismiga o‘ng oyoqda anura neryo chagi, pakura neryo chagi oyoqni aylantirishlar soni avval 10,94 %ni yakunida bu ko‘rsatgich 11,91 marta marta ($p>0,05$); 6- yaqin masofada 10 s. davomida tajriba guruhining raqibning olgul qismiga chap oyoqda anura neryo chagi, pakura neryo chagi oyoqni aylantirib teпishlar soni 13,00 martaga ortgan, nisbiy o‘sish 21,88%ga o‘sganini kuzatish mumkin($p<0,01$) natijalar ancha yaxshilang, nazorat guruhida yaqin masofada 10 s. davomida raqibning olgul qismiga chap oyoqda anura neryo chagi, pakura neryo chagi oyoqni aylantirib teпishlar soni tajribani yakunida 11,63 martani tashkil qilgan, o‘rtacha nisbiy o‘sish 10,16% ($p>0,05$); Tajriba guruhi sinaluvchilari chidamlilik: 7 -Yop chagi olgul zarbasini o‘ng oyoqda 10 metr masofaga fishkalar orasidan o‘tib tepib borishlar bo‘yicha yuqori 12,67%dan 15,89 martaga yuqorilagan, nisbiy o‘sish 25,44%ga ko‘tarilgan ($p<0,001$); nazorat guruhida 12,89 %dan 14,37% martaga, 11,51 % ($P<0,05$); 8- Yop chagi olgul zarbasini chap oyoqda 10 metr masofaga fishkalar orasidan o‘tib tepib borishlar bo‘yicha tajriba guruhi sinaluvchilaring o‘rtacha tadqiqot boshidagi terishlar soni 10,33%dan 12,90% (marta)ga ko‘tarilgan, nisbiy o‘sish 24,80%ga yuqori natijaga erishilgan($p<0,001$), huddi shunday test natijalari bo‘yicha nazorat guruhi sinaluvchilari tepib borishlar soni 10,46%dan 11,74% (marta)ga, nisbiy

o‘sish 12,27% qoniqarli (p<0,05); tadqiqotning tajriba guruhida 9- O‘ng oyoqda dolyo chagi zarbasini tananing momtom qismiga maximal tepishlar tadqiqotning boshida 34, 94%dan 42,06 (%)ga nisbiy o‘sish 20,35%ga (p<0,01) nazorat guruhida tadqiqotning boshida 34, 22%dan 37,50 (%) ga nisbiy o‘sish 9,58 %ga (p>0,05); va tajriba guruhining 10- chap oyoqda dolyo chagi zarbasini tananing momtom qismiga maximal tepishlar soni tajribaning boshida 31,78%dan 37,79 (%)ga ko‘tarilib, nisbiy o‘sish ko‘rsatgichi 18,93%ga yaxshilangan (p<0,01), nazorat gurhida tajribaning boshida 31,39 % dan yakunida 34,21 (%) ni qayd etgan, nisbiy o‘sish ko‘rsatgichi 8,99%ga qoniqarli ekanini ko‘rishimiz mumkin.



4-rasm. Tajriba va nazorat guruhlari 8-10 yoshli tekwondochilari - sinaluvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligi darajasi o‘rtacha arifmetik qiymatlarining tajriba davomida nisbiy o‘sishlarini solishtirish diagrammasi (foizlarda)

Natijalar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, olib borilgan ilmiy tadqiqotimiz davomida an’anaviy mashg‘ulotlarda shug‘ullanishni davom ettirgan NG sinaluvshilarini tajriba boshi va oxirida erishgan natijalari o‘rtasidagi farq aytarli darajada o‘smaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Maxsus texnik elementlarni ekspert baholash natijalarini qiyosiy tahlil qilish, tajriba bosqichining boshida ikkala guruhlarda ham o‘rtacha ballar amalda bir xil bo‘lganligini ko‘rsatdi.

Yuqorida keltirilgan jadvallarda va rasmda ifodalangan diagrammadagi ma’lumotlarni tahlil qilish, tajriba va nazorat guruhlari sinaluvchilarini tajriba yakunida umumiy jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlarining o‘rtacha arifmetik qiymatlarini

nisbiy farqlari ahamiyatga molik darajada farqlari ko‘rinib turibdi. Jumladan, o‘rganilgan o‘nta maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari o‘rtacha arifmetik qiymatlarining nisbiy farqlari o‘rtachasi 21,9 foizni tashkil etdi.
Tajriba (n=14) va nazorat (n=14) guruhlarining tadqiqot yakunidagi maxsus jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari o‘rtacha arifmetik qiymatlarining tajriba davomida nisbiy o‘sishlari kuzatildi..

Tajriba bosqichining yakunida ekspert baholash natijalarini taqqoslash yo‘li bilan, “3- dolyo chagi zarbasini 10 m. masofada o‘ng oyoqda max bajarishlar soni tajriba guruhida tajriba boshida 16,89%ni tashkil etgan bo‘lsa, bu natija tajribani yakunida yuqorilaganini 21,28% martaga oshganini ko‘rishimiz mumkin, nisbiy o‘sish 25, 99% ($p<0,001$); nazorat guruhida bu test bo‘yicha tajriba boshida 17,28%ni tashkil etgan bo‘lsa, bu natija tajribani yakunida qoniqarli 19,27% martani ko‘rishimiz mumkin, nisbiy o‘sish 11, 51% ($p<0,05$)”, “7 -Yop chagi olgul zarbasini o‘ng oyoqda 10 metr masofaga fishkalar orasidan o‘tib tepib borishlar bo‘yicha yuqori 12,67%dan 15,89 martaga yuqorilagan, nisbiy o‘sish 25,44%ga ko‘tarilgan($p<0,001$); nazorat guruhida 12,89 %dan 14,37% martaga, 11,51 % ($p<0,05$); 8- yop chagi olgul zarbasini chap oyoqda 10 metr masofaga fishkalar orasidan o‘tib tepib borishlar bo‘yicha tajriba guruhi sinaluvchilaring o‘rtacha tadqiqot boshidagi terishlar soni 10,33 dan 12,90 (marta)ga ko‘tarilgan, nisbiy o‘sish 24,80 foizga yuqori natijaga erishilgan($p<0,001$), huddi shunday test natijalari bo‘yicha nazorat guruhi sinaluvchilari tepib borishlar soni 10,46dan 11,74 (marta)ga, nisbiy o‘sish 12,27 foiz qoniqarli ($p<0,05$)”, “guruhida 9- o‘ng oyoqda dolyo chagi zarbasini tananing momtom qismiga maximal tepishlar tadqiqotning boshida 34, 94 kgdan 42,06 kgga nisbiy o‘sish 20,35foizga ($p<0,01$) nazorat guruhida tadqiqotning boshida 34, 22 foizdan 37,50 foizga nisbiy o‘sish 9,58foizga ($p>0,05$) uchun qo‘yilgan o‘rtacha ballar bo‘yicha nazorat guruhidan ancha ustunlikka ega; o‘rtacha ballar bo‘yicha farqlar mos ravishda 2,258, 2,210 va 2,021ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot yakuniga kelib tajriba guruhu sinaluvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari o‘rtacha nisbiy o‘sish 21,90 foizni, maxsus jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari asosida aniqlangan variatsiya koeffitsientlari qiymatlari V=14,11 % bilan V=V=16,34% oraligida tebranishi kuzatildi. nazorat (n=14) guruhi sinaluvchilarining jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari statistik xarakteristikalarini tadqiqot davomida nisbiy o‘sish 10,32 foizni, maxsus jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari asosida aniqlangan variatsiya koeffitsientlari qiymatlari V=14,59 % bilan V=V=16,64 % oraligida tebranishi kuzatildi.

Yuqorida qayd etilgan natijalar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, olib borilgan ilmiy tadqiqotimiz davomida an’anaviy mashg‘ulotlarda shug‘ullanishni davom ettirgan NG sinaluvshilarini tajriba boshi va oxirida erishgan natijalari o‘rtasidagi farq aytarli darajada o‘smaganligini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSALAR

1. Adabiyotlardagi ma’lumotlarni tahlil qilish, tadqiqotchilar va amaliyotchi pedagoglarni shug‘ullanuvchilarga bo‘lgan individual yondashuvlarini kengaytirish va chuqurlashtirishning katta imkoniyatlarini ko‘rsatdi. Bir tomondan, ta’lim va tarbiyaning deyarli barcha usullari, metodikalari va metodik usullari individuallashtirilishi kerak. Bu, ilmiy-metodik adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar, ilg‘or pedagogik tajribani umumlashtirish bilan ham va bizning tajriba tadqiqotlarimiz natijalari bilan ham tasdiqlanadi. Boshqa tomondan, shug‘ullanuvchilarning iste’dodlarini, qobiliyatlarini va moyilliklarini har tomonlama hisobga olish asosida, ularga individual yondashishni qo‘llash, ularni mos ravishdagi sport faoliyati bilan faol shug‘ullanishga motivatsiya qildiradi va shu tufayli, o‘quv-trenirovka va tarbiya jarayonlarini ijtimoiylashtirishga ko‘maklashadi.

2. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili 8-10 yoshli taekvondochilar texnik-taktik tayyorgarligida ixtisoslashtirilgan o‘yin topshiriqlaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar mavjud emasligini aniqlashga imkon berdi.

3. Aniqlanishicha,ta’limning ikkinchi yili boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida 8-10 yoshli taekvondochilar tomonidan texnik-taktik zahirani egallash uchun eng qulay davr hisoblanadi. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida 8-10 yoshli taekvondochilar tomonidan jangavor vaziyatlarni hal etish bilan bir qatorda, texnik-taktik harakatlarni o‘zlashtirishga yordam beruvchi ixtisoslashtirilgan o‘yin vaziyatlarini ishlab chiqildi.

4. 8-10 yoshli taekvondochilar texnik-taktik tayyorgarligini oshirish uchun yigirmata murakkab vaziyatda jang ustivorligi va nazoratini qo‘lga olishga imkon beradigan variantlari taekwando mashg‘ulotlarida qo‘llanildi. Natijada 8-10 yoshli taekvondochilarning texnik tayyorgarligi 13,5 % ga yaxshilandi.

5. 8-10 yoshli taekvondochilar raqibini aldamchi harakatlar bilan chalg‘itish uchun sparingda zarbalar ketma-ketligini yo‘llash va zarbalarga bloklar qo‘yish 8-10 yoshli taekvondochilar mashg‘ulot jarayonida qo‘llanildi. Natijada 8-10 yoshli taekvondochilarning taktik tayyorgarligi 12,8 % ga yaxshilandi.

6. 8-10 yoshli taekvondochilarni hujum, himoya va qarshi hujum harakatlariga o‘rgatishda sherik bilan sparing jarayonida uzoq, o‘rta va yaqin masofada qulay vaziyatlarda ixtisoslashtirilgan o‘yin usullaridan foydalanib sportchida diqqatni jamlash, vizual nazorat, vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, raqibni xis qilish, ushlab olish kabi harakatlarni sport maktabi yosh taekvondochilar mashg‘ulot jarayonida qo‘llanildi. Natijada texnik-taktik tayyorgarligi bo‘yicha rivojlanish dinamikasi, dolyochagi chap oyoqda harakatlar hajmi 19,1% ni, natijaviyligi 14,2% ni, yopchagi zarbasini chap oyoqda bajarishda hajmi 24,8% ni, natijaviyligi 9,3% ga yaxshilanishga erishildi.

7. 8-10 yoshli taekvondochilar maxsus mashqlarni sparingda qo‘llashi uchun shartli jangga ixtissoslashtirilgan harakat vazifalarini kiritildi. Yosh taekvondochilar mashg‘ulot jarayonida muntazam qo‘llash natijasida yosh taekvondochilarni dolyochagi-yopchagi zarbasining natijaviyligi (chap oyoq) 11,8% yaxshilandi.

8. Tadqiqotlar natijasida ta’limning ikkinchi yilida boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida 8-10 yoshli taekvondochilar tomonidan texnik-taktik zahiralarni samarali o‘zlashtirilishiga yordam beruvchi ixtisoslashtirilgan o‘yin topshiriqlari aniqlandi.

Texnik-taktik tayyorgarligi bo‘yicha rivojlanish dinamikasi: (dolyochagi chap oyoqda harakatlar hajmi 19,1% ni, natijaviyligi 14,2% ni, yopchagi zarbasini chap oyoqda bajarishda hajmi 24,8% ni, natijaviyligi 9,3% ni, dolyochagi-yopchagi zarbasining natijaviyligi (chap oyoq) 11,8%) ni tashkil qildi. Natijada 8-10 yoshli taekvondochilarning texnik-taktik tayyorgarligi bo‘yicha rivojlanish dinamikasi holatlari 21.9% ga yaxshilanishiga xizmat qilgan.

AMALIY TAVSIYALAR

1. Mashg‘ulot jarayonida 8–10 yoshli taekvondochilarning texnik va taktik qaror qabul qilish tezligini oshirish maqsadida raqibning turli uslubdagi hujum va himoya harakatlarini modellashtiruvchi sun’iy jang vaziyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday mashqlar sportchilarda jang jarayonini tezkor tahlil qilish, vaziyatni to‘g‘ri baholash hamda mavjud sharoitga mos texnik-taktik qarorni tanlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Mashg‘ulotlarda turli masofa, temp va taktik sharoitlarni yaratish sportchilarning fikrlash faolligini kuchaytiradi hamda ularning musobaqa faoliyatiga moslashuvchanligini oshiradi. Natijada yosh taekvondochilarda texnik harakatlarni vaziyatga mos ravishda qo‘llash, tezkor qaror qabul qilish va jang jarayonini samarali boshqarish kompetensiyalari shakllanadi.

2. Aldamchi zarbalar, bloklash va qarshi hujum kombinatsiyalarini rivojlantirish uchun mashg‘ulotlarda raqibning taktik javob reaksiyasini oldindan taxmin qilishga asoslangan mashqlar tizimini qo‘llash yosh taekvondochilarning jang davomida raqibni chalg‘itish, uning himoya tizimini buzish va ustunlikni qo‘lga olish qobiliyatini oshiradi.

3. Turli masofalarda (uzoq, o‘rta, yaqin) jang olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun vaziyatga moslashtirilgan o‘yinli mashg‘ulotlar, sensorli reaksiya trenajyorlari va ko‘p yo‘nalishli harakat topshiriqlaridan foydalanish, taekvondochilarning diqqatini jamlash, vizual nazorat, fazoviy idrok va qaror qabul qilish tezligini sezilarli darajada oshiradi.

4. Erkin jang ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida mashg‘ulot jarayoniga shartli jang topshiriqlarini tizimli ravishda kiritish muhim hisoblanadi. Bunda sportchilarga raqibning ma’lum taktikasi asosida jang olib borish, cheklangan vaqt oralig‘ida aniq maqsadli zarbalarni amalga oshirish, shuningdek hujum va himoya strategiyalarini tezkor ravishda almashtirish kabi vazifalar berilishi tavsiya etiladi. Bu jarayon yosh taekvondochilarda jang vaziyatini tez tahlil qilish, raqib harakatlarini oldindan sezish hamda mos taktik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, bunday topshiriqlar sportchilarning texnik harakatlarni real jang sharoitiga yaqin muhitda qo‘llash malakasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

5. Boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi 8–10 yoshli taekvondochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishda mashg‘ulot jarayoniga vaziyatli va ixtisoslashtirilgan o‘yin topshiriqlarini tizimli ravishda kiritish maqsadga muvofiq. Mashqlar sparring jarayonida uchraydigan real musobaqa vaziyatlarini modellashtirish asosida tashkil etilishi lozim. Bunda sportchilarning masofa tanlash, hujum va qarshi hujumni amalga oshirish, manyovr qilish hamda raqibning ustun tomonlariga mos

ravishda taktika tanlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. O‘yin topshiriqlari yosh sportchilarning tezkor fikrlashini, qaror qabul qilish tezligini va texnik elementlarni to‘g‘ri qo‘llash malakasini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mashg‘ulotlarda turli masofa, temp va jang olib borish uslublarini o‘zgartirib borish orqali sportchilarning individual texnik-taktik imkoniyatlarini kengaytirish tavsiya etiladi. Mazkur yondashuv yosh taekvondochilarning musobaqa faoliyatiga samarali tayyorgarlik ko‘rishiga hamda ularning sport natijalarini barqaror oshirishga yordam beradi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.28 /2025.17.12.Ped.02.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА

УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА

НУРИТДИНОВ АБРОРЖОН АХРОРЖОН УГЛИ

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОЙ ДВИГАТЕЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ТАЭКВОНДИСТОВ 8-10 ЛЕТ В ГРУППЕ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ

13.00.04 – Теория и методика физического воспитания, спортивной тренировки, оздоровительной и адаптивной физической культуры

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Чирчик - 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за №B2022.2.PhD/Ped3728.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете физической культуры и спорта.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте по адресу www.jtsu.uz и информационно-образовательном порале “Ziyonet” по адресу (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Рахматов Бектош Шомурод угли** доктор философии по педагогическим наукам (PhD), профессор
Официальные рецензенты:	**Адилов Сарвар Кахрамонович** доктор педагогических наук (DSc), профессор
	Артиков Зохид Собирович доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ведущая организация:	

Защита диссертации состоится “____” “_____” 2026 г. в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 при Узбекском государственном университете физической культуры и спорта по адресу: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Спортчилар, дом 19. Тел: (0-370)-717-17-19,717-27-27, факс:(0-370) 717-17-76, Веб-сайт: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz, Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, здание“А” 1-й этаж, 118 аудитория).

С диссертацией можно ознокомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирована за №_____) по адресу: 111709, Тошкентская область, г.Чирчик ул. Спортчилар, дом 19.

Автореферат диссертации разослан “_____” _____2026 года
(реестр протокола рассылки № __ от “____” _____2026 года)

Р.М. Маткаримов
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.п.н. (DSc), профессор

Ш.Ш.Газиев
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней д.п.н. (DSc), профессор

М.С. Олимов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней , д.п.н. (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В связи с бурным развитием всех видов спорта в мировом масштабе, а также со значительным ростом числа спортсменов, участвующих в международных соревнованиях, их результатов и достижений, спортсмены осуществляют свою деятельность в условиях повышенного физического напряжения, психологического давления и высококонкурентной среды. В частности, проведение высокоинтенсивных тренировок с юными таэквондистами приводит к перегрузкам в мышцах, суставах и в области позвоночника. В результате организм спортсменов не успевает полностью восстановиться к следующим тренировкам, часто возникают травмы, что в конечном итоге приводит к преждевременному завершению спортивной карьеры. Это порождает необходимость проведения исследований, связанных с организацией годичной подготовки таэквондистов на научной основе, чётким планированием содержания и нагрузки каждого тренировочного этапа исходя из возрастных особенностей, глубоким анализом и совершенствованием технических действий, разработкой новых требований к отбору по видам подготовки, а также с поиском путей повышения организационно-методической эффективности управления всеми этапами вплоть до достижения высоких спортивных результатов.

